# Termiz shahar kasb-hunar maktabida nemis tili o’quv kurslari tashkil etildi

Termiz shahar kasb-hunar maktabida nemis tili o’quv kurslari tashkil etildi

Bugun, 4 may kuni Surxondaryo viloyati Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi mutaxassislari Termiz davlat pedagogika instituti professor-o’qituvchilari bilan birgalikda nemis tili maxsus o’quv kurslarini tashkil etish maqsadida Termiz shahar kasb-hunar maktabi o’quvchilari bilan uchrashdi.

Termiz shahar kasb-hunar maktabida nemis tili o’quv kurslarini tashkil etish maqsadida 2 ta guruh shakllantirilib, ularning har birida 15 nafardan o’quvchi qamrab olindi. Uchrashuvda o’quvchilarga ikkinchi chet tilini o’rganishning ahamiyati, yoshlarning kasbiy rivojlanishidagi yangi imkoniyatlar haqida so’z yuritildi.

Tashrif chog’ida kasb-hunar maktabi chet tili o’qituvchilari hamda o’quvchilarning bilimlarini sinovdan o’tkazish maqsadida ingliz va rus tillaridan Mock test ham o’tkazildi.





